“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=357

2026-yil
3-son
mart
ISSN 3093-8546



Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi (MDH) davlatlarida ekologik auditni huquqiy ta’minlash masalalari

Baxadir Jienbaev,
IIV Malaka oshirish instituti Nukus filiali Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi oʻqituvchisi
Huquqshunos
e-mail: Jienbaev@mail.ru

Аннотация. Mazkur maqolada, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) asosan, Rossiya, Qozogʻiston, Belarus va Ukraina davlatlarida ekologik auditni huquqiy ta’minlash masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan.Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi doirasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ekologik audit institutining oʻrni va ahamiyati yoritib berilgan, shuningdekmamlakatimizda ekologik auditni huquqiy takomillashtirish masalalarida takliflar bayon etilgan.

Калит сўзлар. Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi, Ekologiya Kodeksi, ekologik xavfsizlik, ekologik audit, ekologik nazorat, korxona

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы вопросы правового обеспечения экологического аудита в Содружестве Независимых Государств (СНГ), в основном в России, Казахстане, Беларуси и Украине.Освещена роль и значение института экологического аудита в обеспечении экологической безопасности и реализации принципов устойчивого развития в рамках Содружества Независимых Государств, а также изложены предложения по вопросам правового совершенствования экологического аудита в нашей стране.

Ключевые слова. Содружество Независимых Государств, Экологический кодекс, экологическая безопасность, экологический аудит, экологический контроль, предприятие

Annotation. This article comprehensively analyzes the issues of legal support for environmental audit in the Commonwealth of Independent States (CIS), mainly in Russia, Kazakhstan, Belarus, and Ukraine.The role and significance of the institution of environmental audit in ensuring environmental safety and implementing sustainable development principles within the framework of the Commonwealth of Independent States are highlighted, and proposals for the legal improvement of environmental audit in our country are presented.

Keywords. Commonwealth of Independent States, Environmental Code, environmental safety, environmental audit, environmental control, enterprise.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 1991-yilda tashkil etilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida iqtisodiy hamkorlik bilan bir qatorda ekologik sohadagi hamkorlik mexanizmlari ham shakllantirildi. Shu jihatdan ekologik audit instituti atrof-muhitni muhofaza qilishning samarali huquqiy vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

MDH davlatlarida ekologik auditni huquqiy tartibga solish turlicha shakllangan. Ayrim davlatlarda u alohida qonun bilan mustahkamlangan bo‘lsa, boshqalarida ekologik nazorat, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki tabiatdan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari doirasida tartibga solinadi. Xususan, Rossiya, Qozog‘iston, Belarus va Ukraina kabi davlatlarda ekologik auditning huquqiy asoslari milliy qonunchilik tizimida belgilangan.

AQSH va Yevropa davlatlaridan farqli ravishda 1990-yillarning boshlarida Rossiya Federatsiyasida ekologik huquq institutlari jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olmaganligi natijasida mazkur davlatda faoliyatning yangi turi - ekologik auditning paydo bo‘lishiga olib keldi. Rossiya Federatsiyasida ekologik auditga iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va siyosiy sohalarda zarurat paydo bo‘lgan.

Rossiya federatsiyasida birinchi navbatda, iqtisodiy sohada ekologik auditga zarurat paydo bo‘ldi. Buning sababi sifatida iqtisodiyotda tashqi investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid talablarga rioya qilish, ekologik boshqaruv va nazorat organlarining hamkorlikda ishlashini jadallashtirish hamda korxonalarning atrof tabiiy muhitga nisbatan ta’sirini kamaytirish belgilangan.

Ekologik faoliyatni optimallashtirish uchun eng kuchli rag‘bat milliy va ayniqsa xalqaro investitsiyalarni jalb qilish bo‘lib, ularning aksariyati majburiy ekologik auditni talab qiladi. Asosan, Jahon banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banklaridan investitsiyalar ajratilishida ekologik audit talablari zarur edi.

Rossiya Federatsiyasida ekologik audit asosan korxona darajasida tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda, garchi u asosan xorijiy ekologik audit firmalari yoki ularning vakolatxonalari tomonidan amalga oshirilsa ham. Masalan, A Dames & Moore Company audit va konsalting firmasi 1990-yillarda fransuz kompaniyasi Renault bilan qo‘shma investitsiya loyihasi doirasida Lenin komsomoli nomidagi Moskva avtomobil zavodi (AZLK) uchun ekologik audit o‘tkazgan. Ilgari ushbu firma Belgorod viloyatidagi Kola elektrometallurgiya zavodi, Rostov viloyatidagi Taganrog metallurgiya zavodi, Perm motors zavodi, Yaroslavl “Neftorgsintez” zavodi (YANOS) va boshqalarning ekologik auditlarini o‘tkazgan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

edi.[1. 14 B].

Rossiyada ekologik auditning shakllanish bosqichida “Artur Andersen” (ayniqsa, kimyo korxonalarida), “KPMG,” “Deloyt end Tush,” “Prays Uoterxaus,” “Ernst end Yang” va boshqa auditorlik firmalari Rossiya ekologik auditorlik firmalari bozorida sezilarli faollik koʻrsatdi.

1993-yilda Rossiya Tabiiy resurslar hamda Rossiya Transport vazirliklari tomonidan “Rossiyaning transport-yoʻl kompleksida ekologik maqsadlarda ish va xizmatlarni bajarishning vaqtinchalik qoidalari” va “Transport-yoʻl kompleksida ekologik audit toʻgʻrisidagi vaqtinchalik nizom” qabul qilinishi, ekologik audit oʻtkazish tartibini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yuzaga keltirdi.

Rossiya Federatsiyasida 1994-yildan 1998-yilga qadar ham ekologik auditni huquqiy ta’minlash borasida ham bir qator hukumat qarorlari va tegishli vazirliklarning buyruqlari qabul qilingan, bularga misol sifatida Rossiya hukumatining 1994-yildagi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash toʻgʻrisida»gi, 1996-yildagi «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash toʻgʻrisida»gi qarorlari, Tabiiy resurslar vazirligining 1995-yildagi “Ekologik audit toʻgʻrisida”gi, Ekologiya davlat qoʻmitasining 1998-yildagi “Rossiya Davlat Ekologiya qoʻmitasi tizimida ekologik audit toʻgʻrisida” va “Rossiya Federatsiyasida ekologik auditni joriy etish boʻyicha amaliy ishlarni olib borish toʻgʻrisida”gi buyruqlarini keltirish mumkin. Demak, mazkur yillar oraligʻida Rossiya federatsiyasida ekologik auditni huquqiy ta’minlash masalalari hukumat qarorlari va tegishli vazirlik hamda qoʻmitalarning buyruqlari bilan tartibga solingan.

Bu davrda "Gazprom" OAJga qarashli “Severgazprom” MCHJ, “Astraxangazprom” MCHJ, “Tyumentransgaz” MCHJ kabi yirik korxonalarda ekologik audit oʻtkazildi. Bir qator neft kompaniyalarida “YuKOS” MK, “Rosneft” neft konserni OAJ, shuningdek, yirik sanoat korxonalarida: dizel motorlarini ishlab chiqarish boʻyicha “RUMO” OAJ zavodi (Nijniy Novgorod shahri); Ribinskiy motorsozlik zavodi (Yaroslavl viloyati); Krasnoyarsk alyuminiy zavodi; “Sokol” Nijniy Novgorod aviasozlik zavodi” AJ; Moskva aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi (“MALO”) va boshqa bir qator mashinasozlik korxonalarida ham ekologik audit oʻtkazildi.[2. 51B]. Shuningdek, mazkur davrda Rossiya federatsiyasi Davlat standarti organing tegishli qarorlariga asosan, xalqaro ISO 14001 va 14050 sonli standartlari qabul qilindi.

Rossiya Federatsiyasining 2002-yil 10-yanvardagi 7-FZ-sonli “Atrof-muhitni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Federal qonuni hamda 2014-yil 21-iyuldagi 219-FZ-son, 2016-yil 5-apreldagi 104-FZ-son, 2018-yil 29-iyuldagi 104-FZ-son, Federal qonunlari tahririda kirilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarga asosan, ekologik audit - yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi talablarga, shu jumladan normativlar va normativ hujjatlarga, federal normalar va qoidalarga, xalqaro

standartlar talablariga rioya etilishini mustaqil, kompleks, hujjatlashtirilgan baholash va bunday faoliyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash[3.], deb ta’rif berilgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2002-yil 31-avgustdagi tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan “Rossiya Federatsiyasi ekologik doktrinasi”[4.]da, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiiy muhitga bo‘lgan bosimni kamaytirish, uni muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish maqsadida bozor munosabatlarini iqtisodiy jihatdan tartibga solish masalalarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning ekologik auditini, atrof muhitni muhofaza qilish va ixtiyoriy sertifikatlash sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish zarurligi qayd etilgan.

Rossiya Federatsiyasida ekologik auditni huquqiy ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, federal darajada emas balki hududiy darajada qabul qilingan qonunlar mavjudligi bilan ahamiyatli hisobalanadi, ya’ni Tomsk viloyati gubernatori tomonidan 1997-yil 9-oktabrdagi 574-sonli “Tomsk viloyatida ekologik audit to‘g‘risida”gi qonuni[5.]ni qabul qilingan, 14-moddadan iborat bo‘lgan mazkur qonun Tomsk viloyatida ekologik auditni huquqiy jihatdan tartibga solishda ahamiyatli hisoblanadi.

Shuningdek, Moskva hukumatining 2003-yil 22-iyuldagi 568-PQ-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Moskva shahridagi ekologik audit tizimi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom” Moskva shahrida ekologik audit o‘tkazish tartibi, uning turi va natijalarini belgilab beradi.

Rossiya Federatsiyasida “Ekologik audit to‘g‘risida”gi qonun federal darajada hozirgi kunga qadar qabul qilinmagan, lekin uni qabul qilish bo‘yicha bir necha marotaba urinishlar bo‘lgan. Misol uchun, 2013-2015-yillar davomida Rossiya Tabiatni muhofaza qilish vazirligi “Ekologik audit to‘g‘risida”gi federal qonun loyihasini ishlab chiqdi va kelishish uchun taqdim etildi, biroq u qabul qilinmadi. Qonun loyihasida majburiy va ixtiyoriy ekologik auditni tartibga solish, majburiy ekologik audit o‘tkazish holatlarini belgilash taklif etildi. Ko‘rinib turibdiki, qonun loyihasi federal qonun shaklini olmaganligining sabablaridan biri ishlab chiquvchilarning majburiy ekologik audit o‘tkazish holatlarini belgilashga intilishi bo‘lgan, bu esa biznes uyushmalari tomonidan qarshilikni keltirib chiqargan.[6. 144-153 betlar].

MDHga a’zo davlatlar orasida Belarus Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari keng qamrovli bo‘lib, ko‘plab kodekslar va qonunlarni o‘z ichiga oladi: Yer kodeksi (2008), Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun (2008), Suv kodeksi (1998), O‘rmon kodeksi (2000), Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun (2002), Davlat ekologik ekspertizasi to‘g‘risidagi qonun (2009), Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risidagi qonun (2000), Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun (2008),

Ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun (2001), O‘simlik dunyosi to‘g‘risidagi qonun (2003), Hayvonot dunyosi to‘g‘risidagi qonun (2007), Chiqindilarni boshqarish to‘g‘risidagi qonun (2007) va boshqalar.[8. 44 B].

Mazkur davlatda ham ekologik auditni huquqiy ta’minlash bo‘yicha alohida qonun mavjud emas. Lekin bir qator qonunlarda ekologik audit tushunchasiga berilgan ta’riflarni ko‘rishimiz mumkin.

Belarus Respublikasining 2023-yil 17-iyuldagi 294-son “Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida” yangi tahrirdagi qonunining 1-moddasi 47-bandiga ko‘ra, Ekologik audit - xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi talablarga rioya etilishini mustaqil kompleks hujjatli baholash hamda bunday faoliyatning atrof-muhitga zararli ta’sirini kamaytirish (oldini olish) bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash[9.] hisoblanadi. Mazkur qonunning 7-bobi 34-moddasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, xo‘jalik va boshqa faoliyatning atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatish xavfini bunday faoliyatning atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi talablarga muvofiqligini mustaqil baholash yo‘li bilan kamaytirish yo‘llari va usullarini aniqlash maqsadida o‘tkazilishi, ekologik audit o‘tkazish tartibi Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashi belgilanishi va Tabiat resurslari va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi tomonidan vakolat berilgan tashkilotlar, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o‘tkazilishi, tekshirilayotgan obyektlarda ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini oshirish bo‘yicha qarorlarni ishlab chiqishda xizmatlar ko‘rsatishi mumkinligi, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarning xo‘jalik va boshqa faoliyatining ekologik auditi ixtiyoriy yoki majburiy tartibda o‘z mablag‘lari hisobidan o‘tkazilishi mumkinligi hamda ekologik audit korxonalarni davlat unitar korxonalarining mulkiy komplekslari sifatida xususiylashtirishda o‘tkazilishi qayd etilgan. Bundan tashqari, Ushbu Qonunga muvofiq ekologik axborot egalari tomonidan taqdim etiladigan yoki tarqatiladigan ekologik axborotlarga ekologik audit o‘tkazish ham kirishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu davlatda ekologik audit tizimini tartibga solishda bir qator hukumat qarorlari qabul qilinganligini ko‘rishmiz mumkin, demak Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining 2013-yil 20-iyundagi “Belarus Respublikasi Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 503-sonli qarorida, Tabiatni muhofaza qilish vazirligi asosiy vazifalari sirasiga, tabiiy resurslarni, shu jumladan yer qa’ri, suv, hayvonot va o‘simlik dunyosini o‘rganish, muhofaza qilish, takror ko‘paytirish va ulardan oqilona foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini, shuningdek gidrometeorologiya, ekologik sertifikatlashtirish va ekologik audit sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshirish hamda

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, gidrometeorologiya faoliyati, shuningdek, iqlimga ta’sirni tartibga solish, ekologik sertifikatlash va ekologik audit sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish[10.] kirishi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, Tabiatni muhofaza qilish vazirligi o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida ekologik audit o‘tkazish, ekologik auditorni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilaydi va ekologik auditor sertifikatini beradi hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan ekologik audit o‘tkazilishini tashkil etadi.

Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining “Ekologik audit o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” 2016-yil 26-maydagi 412-son qarori[11.] ga hamda Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 27-fevral 130-sonli “Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashining qarorlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qarorlarida, ekologik audit subyekti, ekologik auditor tushunchalariga ta’riflar berilgan, ekologik auditning ekologik ekspertizadan farqli jihatlari ajratilgan, ekologik auditorlarning ish tajribasi va ularning malakasini oshirish tartibi, ekologik audit o‘tkazish shakllari, ya’ni to‘liq, dastlabki va ixtisoslashtirilgan shakllarda o‘tkazilishi, ekologik auditni amalga oshirish yo‘nalishlari va boshqa jihatlari huquqiy jihatdan tartibga solingan.

Hozirgi vaqtda Belarus Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha masalalarni tizimlashtirish va yaxlit holatga keltirish uchun 2025-yil 9-noyabrda “Belarus Respublikasi Ekologiya Kodeksi”[12] loyihasi ishlab chiqilganligi hamda mazkur loyihada ekologik audit bo‘yicha alohida bob mavjudligi diqqatga sazovor hisoblanadi.

MDH davlatlari orasida Ukraina davlatida ekologik auditni yagona qonun bilan tartibga solish bo‘yicha dastlabki huquqiy asoslar yaratildi. Ukraina davlatida 2004-yil 24-iyundagi 1862-IV-sonli “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, ekologik audit deganda ekologik audit obyektini baholashning hujjatlashtirilgan mustaqil jarayoni tushuniladi, u muayyan faoliyat turlari, chora-tadbirlar, shart-sharoitlar, ekologik boshqaruv tizimi va ushbu masalalar bo‘yicha ma’lumotlarning Ukraina atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga va ekologik auditning boshqa mezonlariga muvofiqligini aniqlash uchun dalillarni to‘plash va xolisona baholashni o‘z ichiga oladi (1-modda). Mazkur qonun 4-bob va 27-moddadan iborat bo‘lib, unda ekologik audit obyekti va subyekti, ekologik audit mezonlari, amalga oshirish tamoyillari, ekologik auditorlarning va buyurtmachilarning huquq va majburiyatlari, ekologik audit natijalari va xulosalari hamda ekologik audit bilan bog‘liq boshqa jihatlar bayon qilingan.

Shuningdek, Ukraina davlatida ekologik audit ixtiyoriy yoki majburiy shakllarda bo‘lishi mumkin. Majburiy ekologik audit manfaatdor ijro etuvchi hokimiyat organlari yoki mahalliy hokimiyat organlarining so‘roviga ko‘ra Ukraina Vazirlar Mahkamasi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq yuqori ekologik xavf tug‘diradigan subyektlar yoki faoliyatga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- bankrotlik;
- xususiylashtirish, ekologik xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarni konsessiyaga berish, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;
- davlat yoki mahalliy mulkka o‘tkazish yoki sotib olish;
- davlat yoki mahalliy mulk obyektlarini uzoq muddatli ijaraga berish;
- jamoat va mahalliy mulkchilik asosida qo‘shma korxonalar tashkil etish;
- subyektlarni ekologik sug‘urta qilish;
- mahsulot taqsimotiga oid bitimning amal qilishi qonun hujjatlariga muvofiq tugatilganda;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.[13.]

Ukraina atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi (hozirgi vaqtdagi Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslar vazirligi) 2007-yil 29-yanvardagi “Ekologik auditorlarni sertifikatlash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 27-son buyrug‘i qabul qilingan. Shuni ham ta’kidlash kerak, Ukrainada ekologik audit tegishli oliy ma’lumotga ega, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish yoki tegishli sohalarda kamida 3 yil ketma-ket ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxs (ekologik auditor) tomonidan ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi guvohnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs, agar ushbu faoliyat turi ustavda nazarda tutilgan bo‘lsa va bunday yuridik shaxsning shtatlarida kamida bitta ekologik auditor bo‘lsa, ekologik audit o‘tkazishi mumkin. Ekologik auditorlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish oliy ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim muassasalari va boshqa ta’lim muassasalari negizida amalga oshirilishi mumkin. O‘qishni tugatgandan so‘ng imtihon natijalariga ko‘ra tegishli sertifikat oladi.

Ukraina davlatida ekologik audit o‘tkazishning eng muhim tamoyillaridan biri maxfiylik sharti hisoblanadi. Ekologik auditor o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida ushbu tamoilga qatiy amal qilgan holda ish olib borishi zarur. Mazkur davlat qonunchiligiga asosan ekologik audit o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatning amal qilish muddati 3 yil hisoblanadi.

Ukraina davlatida ekologik auditni huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik baza yaratilgan, lekin, uni qo‘llash borasida ayrim muammolar mavjud hisoblanadi. Ukrain olimi I.Jolobchuk tadqiqot ishlarida, bugungi kunda Ukraina iqtisodiyotining ham davlat, ham korporativ sektorlari uchun ekologik audit keng tarqalgan amaliyot emas. Kompaniyalarning atigi 7-8 foizi alohida moliyaviy bo‘lmagan hisobotni tayyorlaydi va nashr etadi, unda korxonaning atrof-muhitga ta’siri haqida ma’lumotlar ham mavjud. Agar mutlaq ko‘rsatkichlar haqida gapiradigan bo‘lsak, o‘n minglab Ukraina kompaniyalaridan atigi 400 ga yaqini o‘zlarining ekologik

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

boshqaruv tizimining ISO 14000 ekologik boshqaruv talablariga muvofiqligi uchun sertifikat olgan va shuning uchun ushbu tizimga muvofiqligi uchun ekologik audit jarayonlaridan o‘tgan. Hatto ushbu audit jarayonlaridan o‘tgan kompaniyalar ham bu holatni oshkor qilmaydi, chunki ular davlatdan hech qanday imtiyozlar olmaydilar. Ammo agar korxona EMAS va ISO 14000 xalqaro standartlari talablariga javob bersa, unda uning mahsulotlari global bozorda raqobatbardosh bo‘ladi.[14.].

Qozog‘iston Respublikasi ekologiya bo‘yicha qonunchilik tizimli ravishda yangilanib bormoqda, bunga “Ekologiya kodeksi”ni misol keltirishimiz mumkin. Qozog‘iston Respublikasida 2007-yil 9-yanvarda qabul qilingan “Ekologiya kodeksi”ga asosan, shu kunga qadar ekologik auditni amalga oshirish tartibini belgilab kelgan 1997-yil 15-iyuldagi 160-1-sonli «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi va 1997-yil 18-martdagi 85-1-sonli «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonunlari o‘z kuchini yo‘qotgan.

Qozog‘iston Respublikasining 2007-yil 9-yanvarda qabul qilingan “Ekologiya kodeksi”da ekologik audit bilan bog‘liq masalalarni huquqiy tartibga solishda alohida bob belgilangan. Mazkur bobda ekologik auditning maqsadlari sifati, atrof tabiiy muhitga ta’sir qilish to‘g‘risidagi taqdim etilgan hisobotlarning ishonchliligini tekshirish, ishlab chiqarish va texnologik jarayonning ekologik talablarga muvofiqligini baholash, ishlab chiqarish monitoringi va nazorati tizimining ekologik talablarga muvofiqligini hamda xodimlarning malaka darajasini baholash belgilangan. Shuning bilan birga Qozog‘iston Respublikasida 2021-yil 2-yanvardagi 400-VI-sonli qonunga asosan yangi tahrirdagi “Ekologiya kodeksi” qabul qilingan. Mazkur kodeksda ekologik audit tushunchasi, uni amalga oshirishning huquqiy tartib qoidalari belgilanmagan. Lekin umumiy manoda ekologik audit faoliyatiga o‘xshash ishlarni ekologik ruxsatnoma tarzida amalga oshirish bo‘yicha tartib-qoidalar mavjud, ya’ni, ekologik ruxsatnoma - yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatish huquqini tasdiqlovchi va faoliyatni amalga oshirishning ekologik shartlarini belgilovchi hujjat hisoblanishi belgilangan. Ekologik ruxsatnomalarga atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlashga qaratilmagan shartlarni kiritish taqiqlanadi. Ekologik ruxsatnoma olgan operator, shuningdek obyekt operatori tomonidan tegishli I yoki II toifali obyekt hududida uni qurish, rekonstruksiya qilish yoki undan foydalanishda ayrim ishlarni bajarish va (yoki) ayrim xizmatlarni ko‘rsatish uchun jalb etilgan jismoniy va yuridik shaxslar bunday ekologik ruxsatnoma shartlariga rioya etishi shart va ularga rioya etmaganlik uchun Qozog‘iston Respublikasi qonunlariga muvofiq javobgar bo‘ladi. Bunday jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan I yoki II toifadagi tegishli obyekt hududida ishlarni bajarish va (yoki) xizmatlar ko‘rsatish uchun alohida ekologik ruxsatnoma olish talab etilmaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ va viloyatlar, respublika ahamiyatiga molik shaharlar, poytaxtning

mahalliy ijro etuvchi organlari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadigan tartibda ekologik ruxsatnomalar va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish to‘g‘risidagi deklaratsiyalar reyestrini yuritishi belgilangan.

Mazkur davlatda ham ekologik auditni amalga oshirishda ayrim bo‘shliqlar va muammolar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Qozog‘iston Ekologik kodeksi va Ekologiya, geologiya va tabiiy resurslar vazirligi ekologik audit bo‘yicha choralar ko‘rilishini ta’minlaydi. Ushbu tekshiruvlar har doim ham yaxshi ishlamaydi, chunki ijro etishda bo‘shliqlar mavjud va malakali inspektorlar yetarli emas. Bu tizimdagi muammolar davom etar ekan, Qozog‘iston uzoq muddatli istiqbolda yashay olmaydi. Agar qattiqroq jazo choralari qo‘llanilsa va malaka bo‘shliqlari to‘ldirilsa, tekshiruvlar yanada foydali bo‘lishi mumkin. Bu yashil iqtisodiy o‘sish uchun ko‘proq foyda keltiradi.[15. 179-196 betlar].

Darhaqiqat yashil iqtisodiy o‘sishga erishish hozirgi vaqtda har bir mamlakatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, uni amalga oshirish uchun esa, ekologik qonunchilik bazasini shakllantirish va ijrosini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, MDH mamlakatlarida ekologik auditni huquqiy ta’minlash masalalari bir-biridan farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya federatsiyasi, Belarus, Ozarbayjon, Qirg‘iziston va Qozog‘iston Respublikalaridan ekologik audit alohida qonunlar bilan emas, balki Ekologiya kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan, Ukraina va Tojikiston Respublikasida alohida qonunlar bilan huquqiy tartibga solinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, MDH mamlakatlari tajribasini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasida ekologik auditni huquqiy ta’minlash bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, Xorijiy va MDH mamlakatlari qonunchiligini chuqur o‘rgangan va tahlil qilgan holda O‘zbekiston Respublikasida ekologiya bilan bog‘liq qonunchilikni tizimlashtirib, “Ekologiya kodeksi”ni qabul qilish va uning tegishli bob hamda moddalarida ekologik audit bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish lozim.

Ikkinchidan, Xalqaro va Yevropa banklaridan kredit ajratilishida ekologik audit o‘tkazilishi lozimligini inobatga olgan, O‘zbekiston Respublikasida viloyatlar kesimida chet el investitsiyalarini jalb qilishni jadallashtirishda ekologik audit o‘tkazishning dolzarbligini tushuntirishga mo‘ljallangan yo‘riqnomalar ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda ularning quyi tashkilotlarida ekologik audit faoliyatini amalga oshirish funksiyalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislardan iborat bo‘limlarni tashkil etish hamda mamlakatimizda ekologiya sohasiga ixtisoslashgan xususiy xorijiy va mahalliy oliy ta’lim muassasalarida va Toshkent davlat agrar universitetida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish

yo‘nalishlarida (fakultetlarida) ekologik audit ixtisosligini ochish va ularda ekologik audit mutaxassislari tayyorlashni yo‘lga qo‘yish kerak.

To‘rtinchidan, so‘ngi vaqtlarda mamlakatimizda atrof-muhit holati va havoning me’yordan ortiq iflonish holatlari kuzatilayotganligini inobatga olgan holda “Majburiy ekologik auditni o‘tkazish tartibi” bo‘yicha alohida hukumat qarori qabul qilinishi lozim. Mazkur qarorning qabul qilinishi atrof-muhitni muhofaza qilish, xo‘jalik va boshqa faoliyat bilan shug‘ullanayotgan tashkilotlarning ekologik jihatlari to‘g‘risidagi ishonchli axborot olish, yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Экологический аудит и сертификация: учебно-методическое пособие / Е.В. Рассадина, Е.Г. Климентова, Ж.А. Антонова – Ульяновск: УлГУ, 2014. – 14 с.

2. Иутин И.Г. “Правовые основы экологического аудита”: Дисс.канд. юрид. наук. - М.- 2008.- 51 с.

3.

4.

5.

6. Кичигин, Н. В. Минимизация и преду-преждение эколого-правовых рисков / Н. В. Кичигин // Журнал российского права. – 2018. – № 8. – С. 144–153.

7. В.В.Кванина., Экологический аудит: анализ, проблемы и перспективы. Вестник ЮУрГУ. Серия «Право». 2020. Т. 20, № 1, С. 33–45 // DOI: 10.14529/law200106

8. Elena Laevskaya., Dmytro Skrylnikov., Access to justice in environmental matters: available remedies, timeliness and costs. Eastern Europe, Caucasus and Central Asia. UNITED NATIONS ECONOMIC COMMISSION FOR EUROPE Convention on Access to Information, Public Participation in Decision making and Access to Justice in Environmental matters. 2012. – 44 p.

9. Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь, 25.07.2023, 2/3014

10. //

11.

12. // Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь

13. // https://zakon.rada.gov.ua/go/1862-15

14. І.Жолобчук, Екологічний аудит в Україні проблеми та актуальність впровадження. ВІСНИК Київського національного університету імені Тараса Шевченка. Економіка. 144/2013. 60-63 с.

15. Asset Kyzdarbekova1, Azhar Nurmagambetova1, Aliya Nurgaliyeva, Laila Bimendiyeva, Altynay Assanova, Sedep Mirzhakypova., Evaluating the role of environmental auditing in green economic growth in Kazakhstan. Heritage and Sustainable Development Vol. 7, No. 1, 2025, pp.179-196 //

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

https://doi.org/10.37868/hsd.v4i1.958